



**XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI LOYIHAVIY TA'LIM ASOSIDA O'QISH  
DARSLARINING O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDAGI IMKONIYATLARI**

**Qurbanova Baxtixon Qo'chqarbaevna**

*Farg'onan Davlat Universiteti (f.f.n.,dots.)*

**Yuldasheva Iroda Abduholiq qizi**

*Farg'onan Davlat Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida loyiha tehnologiyalaridan qanday foydalanish xususiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, loyiha tehnologiyasi, ertak, maqol, topishmoq, urg'u, to'g'ri talaffuz.

Ilmiy-metodik adabiyotlardan ma'lumki, nutq faqatgina fikr ifodalash, axborot almashish, til vositalaridan foydalanish jarayonigina emas, balki shaxsnинг intellektual salohiyatini rivojlantirish asosi ham ekani psixologik va biologik nuqtayi nazardan allaqachon o'z isbotini topgan. Nutq o'stirish shaxs tomonidan og'zaki va yozma adadiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so'zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon hisoblanadi. Binobarin, boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarini matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdan iborat.

Ayniqsa, boshlang'ich sinflarning xalq og'zaki ijodi namunalari o'qitiladigan o'qish darslarining o'quvchilar nutqini o'stirishda imkoniyati keng. Chunki xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining eng sevimli mashg'uloti sanaladi. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, oquvchilar nutqini o'stirish uchun mavjud metodik shartlarni hisobga olsak, kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab ham bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyatni aynan xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan namunalari: ertak va rivoyatlarni o'qish darslarida yaratish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda ertaklarni loyiha metodi orqali o'qitishda o'qituvchi loyihalashning bosqichlarini e'tiborga olishi kerak bo'ladi.

4-sinfda “Hunarsiz kishi o'limga yaqin” ertagini loyiha metodi asosida o'rgatishni ko'rib chiqaylik.

O'quvchilarning faoliyati ikki qismga bo'linadi: tayyorgarlik va amaliy.

1-qism- tayyorgarlik. Ushbu bosqichda loyiha mavzusi tanlanadi, muammo ko'tariladi, aniq yo'naltirilganlik vazifasi belgilanadi. O'quvchilar guruhlari belgilanib, ular orasida vazifalar taqsimlanadi.

2-bosqich amaliy bo'lib, uning maqsadi loyiha vazifalarini to'g'ri bajarish, ishlarni boshqarish va o'z-o'zini baholash hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar o'z loyihalarni himoya qiladilar. Barcha o'quvchilar o'z faoliyatları haqida muloqot qiladilar, erishilgan



natijalarni namoyish etadilar, keljakdagi istiqbollarini aniqlaydilar, sinfdoshlarining savollariga javob beradilar hamda loyihani o'zlarini baholaydilar.

Hunarsiz kishi o'limga yaqin" ertagi o'qitiladigan vaqtidan 3 kun oldin sinf ikkiga ajratiladi. Birinchi guruh o'quvchilariga "Keljakdagi kasbim" mavzusidagi loyiha taklif qilinadi. Loyihaning maqsadi o'quvchilarni turli kasb-hunarlar bilan tanishtirish, ularni kasbga yo'naltirish hisoblanadi. Uning vazifalari esa quyidagilarni aniqlashtirish: kasblar nima?, oilamdagilarning kasblari, menga yoqadigan kasb.

Bu loyihadan ko'zlangan maqsadlar: o'quvchilar nutqini boyitish, turli kasblar bilan tanishtirish; keljakdagi kasbini tanlash va u haqda gapirish.

Ikkinchchi guruhga "Hunarni sev" nomli loyiha taklif qilinadi. Loyihaning maqsadi "Hunarsiz kishi o'limga yaqin" ertagida asosida o'quvchilar nutqini boyitish, ertakda mazmunini o'zlashtirish. Guruhga ertakda aks etgan hunar haqida ma'lumot berish, "Hunarli kishi xor bo'lmas" maqolining ertak mazmuniga qanday aloqasi borligini izohlash topshirig'i beriladi.

Loyiha bo'yicha hisobot taqdimoti ertak o'qitiladgan vaqtga belgilanadi. O'quv mashg'ulotiga qadar o'quvchilar loyihada belgilangan topshiriqlarni bajaradilar va topshiriqlar yuzasidan hisobot beradilar. Buni guruh vakillaridan biri amalga o'shirishi mumkin.

Birinchi guruhning loyiha bo'yicha hisoboti taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin: Dunyoda kasblar ko'p, hunarlar bisyor. Hayotimizda har bir kasbning o'ziga yarasha o'rni bor, ahamiyati bor. Nonvoy dasturxonimizni xushbo'y va mazali nonlar bilan to'ldirsa, shifokor bemorlarni davolaydi. Haydovchilar uzog'imizni yaqin qilsa, dehqonlar shirindan-shakar qovun-tarvuzlar, don mahsulotlari va sabzavotlarni yetishtirib beradi. Chevarlar xush bichim kiyim-kechaklar tikadi, me'morlar esa yurt ko'rkiga ko'rк qo'shuvchi mahobatli binolar quradi.

Hisobot davomida guruh tomonidan kasblar aks etgan slaydlar namoyish qilib turiladi.

O'quvchilar o'z oilasidagilarning kasblari haqida ma'lumot beradilar: mening dadam-o'qituvchi, mening onam-shifokor, mening opam-sotuvchi, mening akam-quruvchi kabi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyot uyi, 2004.- 78 b.
2. Matjonov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov "O'qish kitobi"4-sinf uchun darslik.-Toshkent "Yangiyo'l Poligraph Serfice" 2020.-150-151b.
3. Talabova D. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda samarali usullar// Boshlang'ich ta'lim, 2018, 6-son, 24-25-betlar.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent : Fan, 2005. - 205 b.
5. Tolipov O., Usmonboyeva M. O'quv jarayonini loyihalash va uning bosqichlari // Uzluksiz ta'lim.- Toshkent, 2002, 1-son, 58-64-betlar.